

MAQOLLAR TARBIYA MASKANI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lif metodikalari kafedrasi katta
o'qituvchisi. Telefon: 90 25212 10*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda xalq maqollarining o'rni, xalq og'zaki ijodi namunalari, maqollardan dars jarayonida foydalanish yo'llari, darslikdagi maqollar mazmunini tushuntirish bo'yicha fikrlar berilgan.

Kalit so`zlar: qadriyat, xalq og'zaki ijodi, maqollar, tarbiya, tavsiya, dars jarayoni.

Annotation: In this article, the role of folk proverbs in raising students to become spiritually mature people, examples of folk oral creativity, ways of using proverbs in the course of the lesson, and explaining the content of proverbs in the textbook are given.

Key words: value, folklore, proverbs, education, recommendation, teaching process.

Аннотация: В данной статье приведены роль народных пословиц в воспитании учащихся духовно зрелыми людьми, приведены примеры народного устного творчества, способы использования пословиц в ходе урока, разъяснение содержания пословиц в учебнике.

Ключевые слова: значение, фольклор, пословицы, воспитание, рекомендация, учебный процесс.

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, mehnatkash kishining biror voqe-a-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda. Shuning uchun biz maqollardan juda unumli foydalanib kelmoqdamiz. Endi tajribalarimiz bilan o'rtoqlashib ko'rsak.

O'quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta'sirchan bo'ladi; maqollar o'quvchilarning badiiy didini o'stiradi, nutqqa e'tibor bilan qarashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'qish kitoblarida mavzuga bog'liq holda, o'zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida

xilma-xil mavzularda juda ko‘p maqollar beriladi. O‘quvchilar maqollarni o‘qib, o‘qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog‘laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim so‘z va iboralarniig ma’nosini tushuntiradilar. Natijada o‘rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

Maqollar o‘qilgan asarning xulosasi sifatida ishlatalib, ko‘pgina asarlarning mazmunini tushunib olishga yordam beradi.

Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda, bola tarbiyasi — odob yotar ekan. E’tibor bering:

„Avval salom, ba’daz kalom“, „Avval o‘yla, keyin so‘y la“, „Bola aziz — odobi undan aziz“, „Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan“, „Odob bozorda sotilmas“, „Odobning boshi til“, „Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l“, „Yaxshi xulq kishining husni“, „Ustozingga tik qarasang, to‘zasan, hurmat qilsang, asta-sekin o‘zasan“, „To‘g‘ri o‘zar, egri to‘zar“. Bunday iboratomuz maqollar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

Maqollarni o‘rgatish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g‘oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyuşhtirishni rejalashtirib olish lozim. Maqollarni o‘rganishda ko‘rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi, ta’lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o‘rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniлади:

1. Maqolni o‘qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so‘zlamning ma’nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma’noli va ma’nodosh so‘zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g‘oya bilan aloqasini ochish.
6. Matn mazmuni va g‘oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo‘yicha guruhlash.

Masalan, maqollar xalq og‘zaki ijodi turlaridan biri sifatida o‘zining qadimiyligi, milliyligi, tarbiyaviy ta’sirchanligi bilan insoniyat barkamolligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Maqollar mazmuni va mavzu doirasining nihoyatda serqirraligini nazarda tutib, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalinish mumkin.

O‘quvchilar bilan dars jarayonida maqollar bilan ishlashda tarbiyaviy imkoniyati “Vatan va vatanparvarlik, vatanga muhabbat”, “Insonparvarlik”, “Ilm va hunar”, “Hushyorlik va ehtiyyotkorlik”, “Yaxshi so‘z”, “Maqtanchoqlik va manmanlik”, “Ochko‘zlik va baxillik”, “Pand-nasihatlar” kabi mavzularga doir maqollarga ajratib chiqinglar degan topshiriqlarni berish orqali ular qanchalik darajada maqollar mazmunini bilishligini bilib olamiz. Bunda o‘quvchilarga guruhlarga bo`lgan holda maqollar beriladi, guruh a’zolari esa ushbu tartibda maqollarni mavzuga mos ravishda ajratib chiqishlari kerak.

Nº	Tarbiyaviy imkoniyati	Maqol mazmuni
1.	Vatan va	Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.

	vatanparvarlik, vatanga muhabbat	Vatanning vayronasi – umrning g‘amxonasi. Yurti boyning – o‘zi boy.
2.	Insonparvarlik	Inson qo‘li cho‘lni bo‘ston qilar. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l. Ustoz otangday ulug‘.
3.	Ilm va hunar	Bilgan bilganini ishlar, Bilmagan barmog‘ini tishlar. Bilim – kuchda, kuch – bilimda. Bilimli o‘zar, bilimsiz to‘zar. Bilim baxt keltirar. Bilimsizga ish yo‘q, ishsizga osh yo‘q.
4.	Hushyorlik va ehtiyotkorlik	Dushman siringni o‘g‘irlaydi, do‘st xatoingni to‘g‘irlaydi. Dushmanga bo‘yin egma. Ofat ko‘rmay desang hushyor bo‘l.
5.	Yaxshi so‘z	Yaxshi so‘z – jon ozig‘i. Shirin so‘z – shakardan shirin. Oz so‘zla – soz so‘zla.
6.	Maqtanchoqlik va manmanlik	Kamtarga kamol, manmanga zavol. Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin. O‘zлari xon, ko‘lankalari maydon.
7.	Ochko‘zlik va baxillik	Baxilning bog‘i ko‘karmas. Birovga bersam esiz oshim, uyda tursa sasir oshim. Saxiy bilan baxil bir quduqdan suv ichmas
8.	Pand-nasihatlar	Avval o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq. Aqlingga aql qo‘sh, jahlingga – sabr. Bir kattani gapiga kir, bir kichikning. Gapni gapir uqqanga, jonni jondek suqqanga. Bolta tushguncha, kunda dam olar. Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar

Maqollar o‘qilgan asarning xulosasi sifatida ishlatilib, ko‘pgina asarlarning mazmunini tushunib olishga ham yordam beradi. Misol uchun Abdulla Avloniyning „Yaxshilik yerda qolmas“ hikoyasini olib qaraylik.

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir ari suv ustinda uchub borur edi. Birdan suvgaga yiqilub ketdi. Qanotlari ho‘l bo‘lib ucharga kuchi yetmadi. O‘lar holatga yetdi. Buni bir Kabutar ko‘rub, Ariga rahmi kelub, darhol bir cho‘bni tishlab, suvgaga tashladi. Bechora Ari bu cho‘bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko‘p o‘tmadi. Bir bola tuzoq qo‘yub, Kabutarni tutmoqchi bo‘ldi. Ari buni ko‘rgon zamon kelub, bolani qulog‘ini choqdi. Bola qulog‘ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog‘ini ushladi. Kabutar vaqtni g‘animat bilub, uchub ketub o‘limdan qutuldi.

Demak bunda ushbu mavzuga mos maqollarni topib aytishlari kerak. Misol uchun -Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon, Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon, Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar, So‘z yamon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar kabi maqollarni aytishlari mumkin.

O‘quvchilar o‘qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma’nosи bilan asarda aytيلayotgan fikrning bog‘liqligini izohlab beradilar. Masalan, „Elidan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Vatandan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar“ maqoliga Bobur haqidagi „Hidi, tilimi va mazasidan“ asarini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, maqoli va matallar xalq aql – idrokinining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa – voqealarga munosabati demakdir. Shu orinda shuni takidlash mumkinki, maqol yaratmagan birorta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo‘q bo‘lmasa kerak. Maqollardan oqilona foydalanish bola tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan maqolning sifati, bolalarning yoshiga mos bo‘lishi, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga ko‘ra saralab olinganligi kabilar ushbu jarayonda o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova Safo Matchonov va Ona tili o‘qitish metodikasi
2. Darslik. 2009 yil
3. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Sharq, 2003.
4. Ravlova N. Ilk yoshdagи bolalarga ta’lim-tarbiya berish. – T.: O‘qituvchi, 2000.
5. Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida. – T.: O‘qituvchi, 1998.
6. Usmonov R. Hayot-ustoz, xalq – muallim. – T.: O‘qituvchi, 1992.
7. Abdujalolova SH., Fitrat A. Oila va bola tarbiyasiga oid qarashlar. – T.: Yozuvchi, 2002.
8. Xalq ta’limi jurnali.2016 yil 3-son.(44-46 bet)